



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
Sattarov Farrux Nuridinovich	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
D. K. Ibadullayev	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
Isabekova Dilafuz Shermirzayevna	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
Юсупова Элеонора Фердинандовна	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
M. D. Boynazarova	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
Нормуратов Абдулла Саппарович	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
Normuratov Abdulla Sapparovich	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
Omonova Charos Baxodir qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
Abdumannan Maxammatov	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari	198
Salomov Abdurasul Axmadovich	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi	201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
Sojida Safarova Saxadin qizi	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов	214
Нурбаев Бахтиёр Широнович	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna	

MAKTABDA DARSDAN TASHQARI FUTBOL TO'GARAKLARIDA O'QUVCHILARNING TEZKOR- KUCH QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ro'ziboyeva Fotima Quadrat qizi

Abu Rayxon Beruniy nomidagi UrDU "Sport faoliyati"
futbol mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabdan tashqari tashkil qilinadigan sport to'garaklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari futbol sport to'garagi orqali o'quvchilarda jismoniy sifatlardan tezkorlik va kuchni rivojlantirish to'g'risida batafsil axborot berilgan.

Kalit so'zlar: sport to'garaklari, tezkorlik, kuch, maktab, o'quvchi, jismoniy sifatlar, futbol, mashg'ulot.

Abstract: This article provides information about sports clubs organized outside of school. In addition, it provides detailed information on the development of physical qualities such as speed and strength in students through the football club.

Key words: sports clubs, speed, strength, school, student, physical qualities, football, training.

Аннотация: В статье представлена информация о спортивных секциях, организуемых вне школы. Кроме того, представлена подробная информация о развитии у учащихся физических качеств быстроты и силы посредством занятий футболом.

Ключевые слова: спортивные клубы, скорость, сила, школа, студент, физические качества, футбол, тренировка.

KIRISH

Futbol O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport tizimining eng ommabop hamda jamiyat rivojida muhim o'rin tutadigan sport turlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularni sportga keng jalb etish hamda professional futbolni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababli so'nggi yillarda futbolni rivojlantirish, sport infratuzilmasini mustahkamlash, yosh futbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ommaviy sportni keng targ'ib etishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-sonli "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-sonli "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda futbolni rivojlantirish, ommaviy sportni kengaytirish hamda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish va yosh futbolchilarni tayyorlash tizimini ilmiy asosda takomillashtirish ushbu dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini belgilab beradi ^[1,2,3].

Mamlakatimizdagi ko'plab futbol mutaxassislarining fikriga ko'ra, yosh futbolchilarning texnik va taktik ko'nikmalarni yetarli darajada egallay olmasliklari, avvalo, ularni tayyorlash jarayonining dastlabki bosqichlarida yuzaga keladigan muammolar bilan bog'liqdir. Ayniqsa, yosh futbolchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichlarida mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish, jismoniy sifatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda harakat faoliyatini to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyatga ega.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Futbol o'yinida yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash masalasi har doim dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy futbol o'yinining rivojlanishi futbolchilardan nafaqat texnik va taktik mahoratni, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni ham talab etadi. Ayniqsa, futbolchilarning tezkorlik, kuch, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlari o'yin samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi [5, B.38,45].

Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash jarayoni, avvalo, yosh futbolchilarni tayyorlash tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli bolalar va o'smirlar sport maktablari, futbol akademiyalari hamda umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan futbol to'garaklarida o'quv-mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh futbolchilarni jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa tezkor-kuch qobiliyatlarini shakllantirish kelgusida yuqori sport natijalariga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [6, B.19,22].

O'zbek futbolining kelgusi rivojlanish bosqichi bevosita bolalar va o'smirlar futbolini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Qanchalik yosh futbolchilarni tayyorlash jarayoni samarali yo'lga qo'yilsa, kelgusida milliy futbolimizning rivojlanish istiqbollari ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh futbolchilarning mashg'ulot jarayonida jismoniy sifatlari, ayniqsa tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy futbol har bir futbolchidan yuqori darajadagi harakat faolligini, tezkorlikni, kuchni hamda o'yin davomida to'p bilan aniq va samarali harakat qilishni talab etadi. Bunda futbolchilarning tezkor-kuch qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi, chunki o'yin jarayonida tez yugurish, sakrash, to'p uchun kurashish va zarba berish kabi harakatlar aynan ushbu jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishining maqsadi: Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish uslubiyatini o'rganish.

Tadqiqot ishining vazifalari:

1. Darsdan tashqari futbol to'garaklarida texnik va taktik tayyorgarlik tayyorgarligi bo'yicha o'tkazilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar mazmuni va mohiyatini o'rganish
2. Darsdan tashqari futbol to'garaklarida futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik maxsus mashqlar va nazorat testlarni ishlab chiqish.
3. Darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'yin jarayonida faoliyat samaradorligini tadqiqiy asoslash.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish samaradorligini o'rganish.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi: Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirishda o'yinchilarning musobaqa faoliyati to'g'risidagi axborot asosida murabbiy jamoa tayyorgarligini joriy rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Ma'lumki, musobaqa faoliyatini o'rganish jarayoni har o'yin davomida futbolchilar tomonidan namoyish etiladigan juda ko'p ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi. Lekin yosh futbolchilarda bunday ma'lumotlarni o'rganish natijalari muvofiq adabiyotlarida yetarli aks etirilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Futbol o'yinida sportchining harakat faoliyati turli xil harakatlardan iborat bo'lib, ular yurish, yugurish, tezlanish, sakrash, to'xtash, yo'nalishni keskin o'zgartirish, to'p uchun kurashish, zarba berish, to'pni olib yurish, aldash harakatlari va boshqa ko'plab murakkab koordinatsion harakatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu harakatlarning aksariyati qisqa vaqt oralig'ida maksimal tezlik va kuch namoyon etishni talab qiladi. Shu sababli futbol mashg'ulotlari jarayonida tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tezkor-kuch qobiliyatlari sportchining qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qilish va uni yuqori tezlikda namoyon etish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, tezkor-kuch qobiliyatlari mushaklarning qisqa vaqt ichida maksimal yoki maksimalga yaqin kuch ishlab chiqara olish xususiyatidir. Futbol o'yinida bu sifatlari start tezlanishlari, sakrashlar, zarba berish harakatlari, to'p uchun kurashish epizodlari hamda keskin yo'nalish o'zgarishlarida yaqqol namoyon bo'ladi [8, B.236,247].

Ko'plab mutaxassislar fikriga ko'ra, yosh futbolchilarning tayyorgarlik jarayonida uchraydigan asosiy muammolardan biri mashg'ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirishning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bilan

bog'liqdir. Ba'zi hollarda mashg'ulot jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmaydi. Natijada yosh futbolchilarning tezkor-kuch imkoniyatlari to'liq shakllanmaydi.

R.I. Nurimov yosh futbolchilarning tayyorgarlik jarayonida texnik harakatlarni o'rgatish muntazam nazorat ostida olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, agar mashg'ulotlar rejalashtirilgan holda, tizimli ravishda olib borilsa, yosh futbolchilarning tayyorgarlik darajasi ancha yuqori bo'ladi.

M.A. Godik va D.V. Kuzmichevlarning ta'kidlashicha, o'quvchilarni futbolga oddiy elementlardan boshlab o'rgatish, ularni bosqichma-bosqich yuqori malakali sportchiga aylantirish murakkab, ammo tizimli jarayon hisoblanadi. Bunda mashg'ulotlar aniq reja asosida, yosh xususiyatlariga mos holda va muntazam ravishda olib borilishi zarur. Rejalashtirish sportchini tayyorlashning ko'p yillik tizimida muhim omil bo'lib, o'quv-mashg'ulot jarayonining uzluksizligi, tizimlilik va maqsadga yo'naltirilganligi tamoyillariga asoslanadi.

1970–1980-yillarda Chexiya, Vengriya va Germaniya olimlari o'zlarining ilmiy tadqiqotlari, darsliklari hamda metodik qo'llanmalarida yosh futbolchilarni tayyorlash, ularning texnik va jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullari haqida keng qamrovli ma'lumotlar berganlar. Ularning ishlari futbol mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich tashkil etish, o'yinchilarda to'p bilan harakatlanish, to'pni qabul qilish, uzatish, olib yurish, aldash hamda o'yin vaziyatlarida tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini asoslab berdi. Ayniqsa, o'yin davomida koordinatsiyani saqlash, kuch, tezkorlik va chaqqonlikni uyg'un rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [5, B.102,103].

V.M. Zatsiorsky o'z tadqiqotlarida tezkor-kuch qobiliyatlarini mushaklarning maksimal kuchni minimal vaqt ichida namoyon etish qobiliyati sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, bu sifat asosan nerv-mushak tizimining tezkor ishlashiga bog'liq.

Y.V. Verkhoshansky tomonidan ishlab chiqilgan plyometrik mashqlar tizimi tezkor-kuchni rivojlantirishda inqilobiy ahamiyat kasb etadi. U "portlovchi kuch" tushunchasini ilmiy asoslab, sakrash, sakrab tushish va tezkor qayta sakrash mashqlarining samaradorligini ko'rsatgan [10, B.440,458,463].

V.N. Platonov esa sport tayyorgarligi nazariyasida tezkor-kuch qobiliyatlarini maxsus tayyorgarlikning asosiy komponenti sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, bu sifatlilar sportchining funksional imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida 2024–2026 o'quv yili davomida Bog'ot tumani 36-son umumta'lim maktabida tashkil etilgan darsdan tashqari futbol to'garaklari mashg'ulotlari kuzatildi. Pedagogik kuzatuvlar futbol to'garagi mashg'ulotlari, maxsus sinov mashqlari, ichki musobaqalar, o'rtoqlik uchrashuvlari hamda nazorat mashg'ulotlari jarayonida olib borildi.

Kuzatuvlarning asosiy maqsadi – 10–11 yoshli o'quvchilarning futbol elementlari asosida bajaradigan texnik harakatlari, mashg'ulot davomida namoyon etadigan faolligi, tezkorlik, kuch, koordinatsiya va tezkor-kuch qobiliyatlari rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Kuzatuv davomida o'quvchilarning futbol elementlari asosidagi harakatlari samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- to'pni oyoq bilan zarba berish kuchi va aniqligi;
- bosh bilan o'ynash harakatlari soni;
- to'pni olib yurishda tezlik ko'rsatkichlari;
- to'pni olib qo'yishdagi muvaffaqiyat foizi;
- ko'p marotaba takrorlanadigan tezkor mashqlar natijalari;
- umumiy o'yin faolligi va samaradorlik koeffitsienti.

1-jadval: Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi o'quvchilarida o'tkazilgan dastlabki texnik test natijalarining qiyosiy tahlili (Bog'ot tumani 36-son maktab)

Texnik-taktik test talablari	Tajriba guruhi jamoasi (n=9)	Nazorat guruhi jamoasi (n=10)	Qiyosiy samaradorlik
1.30 metrga to'p bilan yugurish (soniya)	9,7	8,2	<1,5
2.To'pni belgilangan mo'lgalga aniq tepish (8 marta imkoniyat)	4,7	3,4	>1,3
3.Ustunlar orasidan to'pni olib yurish va darvozaga zarba berish (soniya)	14,1	12,7	<1,4
4.30 metrga to'pni aniq uzatish (5marta imkoniyat)	2	3	<1
5.To'p bilan janglyorlik (daqiqqa/marta)	22	27	<5
6.10x10 konvert usulida to'pni olib yugurish (soniya)	22,7	23,8	>1,1



Nazorat testlari tarkibiga to'pni mo'ljalga aniq tepish, ustunlar orasidan to'pni yuqori tezlikda olib yurish, to'pni aniq uzatish, jonglyorlik mashqlari hamda 10×10 "konvert" usulida to'p bilan yugurish kabi maxsus mashqlar kiritildi. Ushbu test mashqlari yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi darajasini, shuningdek ularning tezkorlik, chaqqonlik va koordinatsiya kabi muhim jismoniy sifatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Mazkur testlar futbol mashg'ulotlarida tezkor-kuch qobiliyatlarining shakllanish darajasini aniqlash, o'quvchilarning to'p bilan ishlash mahorati hamda harakatlar aniqligini baholashda muhim metodik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ustunlar orasidan to'pni olib yurish va "konvert" usulida yugurish mashqlari o'quvchilarning tezlik, chaqqonlik va harakat koordinatsiyasini aniqlashda muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Dastlabki nazorat testlari natijalari tahliliga ko'ra, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi tajriba va nazorat guruhlarining o'quvchilarning ko'rsatkichlari umumiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan. Ayrim test mashqlarida nazorat guruhi o'quvchilari biroz ustunlik ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu farqlar statistik jihatdan sezilarli darajada katta emasligi aniqlandi. Bu esa tadqiqot boshlanishida har ikki guruhning tayyorgarlik darajasi deyarli teng bo'lganini ko'rsatadi.

Tajriba jarayonida 2024–2025 o'quv yili davomida tajriba guruhi mashg'ulotlari maxsus ishlab chiqilgan pedagogik metodika asosida tashkil etildi. Mazkur metodika futbol elementlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini o'z ichiga oldi. Nazorat guruhi mashg'ulotlari esa an'anaviy jismoniy tarbiya dasturi asosida olib borildi.

Shu tariqa, tajriba jarayonida qo'llanilgan maxsus metodika o'quvchilarning texnik-taktik tayyorgarligini hamda tezkor-kuch ko'rsatkichlarini yanada samarali rivojlantirish imkonini berdi.

1-jadval: Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi o'quvchilarida o'tkazilgan yakuniy texnik test natijalarining qiyosiy tahlili (Bog'ot tumani 36-son maktab)

Texnik-taktik test talablari	Tajriba guruhi jamoasi (n=9)	Nazorat guruhi jamoasi (n=10)	Qiyosiy samaradorlik
1.30 metrga to'p bilan yugurish (soniya)	7,97	9,08	>1,11
2.To'pni belgilangan mo'lgalga aniq tepish (8 marta imkoniyat)	7,2	4,3	>3,9
3.Ustunlar orasidan to'pni olib yurish va darvozaga zarba berish (soniya)	10,1	12,0	>1,9
4.30 metrga to'pni aniq uzatish (5marta imkoniyat)	5	4	>1
5.To'p bilan janglyorlik (daqqa/marta)	42	34	>8
6.10x10 konvert usulida to'pni olib yugurish (soniya)	19,8	22,0	>2,2

Tajriba yakunida o'tkazilgan nazorat testlari natijalari tahliliga ko'ra, Bog'ot tumani 36-son maktab maktab tajriba guruhi o'quvchilari barcha test mashqlari bo'yicha ijobiy o'sish ko'rsatgan. Xususan, 30 metr masofaga to'p bilan yugurish tezligi o'rtacha $X = 7,97$ soniya, to'pni belgilangan mo'ljalga aniq tepish ko'rsatkichi $X = 7,2$ marta, ustunlar orasidan to'pni olib yurish va darvozaga zarba berish mashqi $X = 10,1$ soniyani tashkil etdi. Shuningdek, 30 metr masofaga to'pni aniq uzatish testida o'quvchilar 5 imkoniyatdan o'rtacha 5 ta muvaffaqiyatli uzatish natijasini qayd etishdi.

Bundan tashqari, to'p bilan jonglyorlik mashqida o'rtacha ko'rsatkich $X = 42$ marta, 10×10 "konvert" usulida to'p bilan yugurish testida esa o'rtacha natija $X = 19,8$ soniyani tashkil etdi (7-jadval). Mazkur natijalar tajriba guruhi o'quvchilarida texnik-taktik tayyorgarlik bilan bir qatorda tezkorlik, chaqqonlik hamda koordinatsion qobiliyatlar ham sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, futbol elementlariga asoslangan o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qilgan. Mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilgan maxsus texnik mashqlar, to'p bilan chaqqonlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar hamda musobaqa uslubidagi o'yinlar o'quvchilarning koordinatsiya, muvozanatni saqlash, tezkor harakatlanish va mushak kuchini uyg'un holda rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maxsus ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanayotgan 10–11 yoshli maktab o'quvchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlari orqali o'quvchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish pedagogik jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi. O'yin faoliyatini maxsus kuzatuv bayonnomalari asosida tahlil qilish o'quvchilarning jismoniy, texnik, taktik hamda psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli maktab

jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida futbol elementlarini o'qitish jarayoni muntazam pedagogik nazorat ostida olib borilishi zarur.

Bog'ot tumani 36-son umumta'lim maktabida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarining o'yin jarayonida bajarilgan texnik-taktik harakatlari kuzatilib, olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Kuzatuvlar natijasida ayrim o'quvchilarning kattalar futbolida qo'llaniladigan murakkab texnik-taktik usullarni yetarli tayyorgarliksiz takrorlashga urinishlari mashg'ulot jarayonida shoshqaloqlik, kuchni noto'g'ri taqsimlash, tez charchash va texnik xatolarning ko'payishiga olib kelishi aniqlangan. Bu holat maktab o'quvchilari bilan mashg'ulotlar olib borishda yosh xususiyatlariga mos, bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi texnik-taktik mashqlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

10–11 yoshli o'quvchilarda futbol elementlarini bajarish samaradorligini aniqlash maqsadida darvoza tomon yo'naltirilgan zarbalar, bosh va oyoq bilan bajarilgan harakatlar, shuningdek jarima maydoni ichida va tashqarisida amalga oshirilgan texnik harakatlar foiz ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuvlar natijasiga ko'ra, tajribadan oldingi va keyingi natijalar o'rtasida sezilarli farq kuzatildi. Nazorat guruhida darvoza tomon berilgan zarbalarning samaradorlik koeffitsiyenti 0,44 %, tajriba guruhida esa 0,56 % ni tashkil etdi. Ushbu natijalar futbol elementlariga asoslangan maxsus mashg'ulot dasturlari o'quvchilarning tezkorlik va kuch uyg'unligini samarali rivojlantirishga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilarining texnik-taktik faoliyatida hujumni tashkil etish samaradorligi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. O'yin jarayonida qanotlardan hamda markazdan tashkil etilgan hujumlar soni va ularning texnik aniqligi tahlil qilinganda, tajriba guruhi o'quvchilari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatgan. Bu esa futbol elementlariga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning koordinatsiya, tezkor fikrlash va harakat aniqligini rivojlantirishda muhim omil bo'lganini tasdiqlaydi.

Pedagogik tajriba natijalarini baholashda texnik test topshiriqlari asosida yakuniy qiyosiy tahlil o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, Bog'ot tumani 36-son maktabida boshlang'ich tayyorgarlik guruhi o'quvchilarida futbol elementlari yordamida tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar tizimi yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Mazkur metodika o'quvchilarda tezlik, kuch, chaqqonlik hamda muvozanatni kompleks tarzda rivojlantirishga imkon berdi.

Maktab jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida texnik-taktik mashqlarni o'rgatish bilan bir qatorda nazariy bilimlarni muntazam berib borish ham muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda sport inshootlari, sport jihozlari va sport kiyimlari bilan tanishtirish, mini-musobaqalar tashkil etish, o'yin qoidalarini tushuntirish hamda hakamlik asoslarini o'rgatish o'quvchilarning sportga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa o'quvchilarda sport faoliyatiga ijobiy motivatsiyani shakllantirib, futbol elementlari orqali tezkor-kuch qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish uchun zarur pedagogik sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF- 5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi PQ- 3610-sonli "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda PF- 5887-sonli "O'zbekistonda futbolni rivojlantirish mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF- 5924 sonli "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
5. Yosh futbolchilarni tanlab olish va tayyorlash. - T., izd. Meditsina, 1989.
6. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv-mag'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma . Toshkent.2011.
7. Akramov J.A Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. // Fan-sportga №1 -2007 y.
8. F.T.Masharipov, D.K.Karimov "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" (futbol). Darslik. Khorezm travel nashriyoti. 393 b. Urganch. 2023 yil.
9. D.K.Karimov "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" (futbol). O'quv qo'llanma. Khorezm travel nashriyoti. 218 b.Urganch. 2022 yil.
10. D.K.Karimov "Sport mahoratini oshirish". Darslik. Khorezm travel nashriyoti. 526 b.Urganch. 2023 yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.